

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

2025-yil 22-may, payshanba,
60 (24.086)-son

O‘zbek xalq maqoli
Adolat qilichi keskir bo‘lar

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz


## “Энди ичига кираман, ўзим шуғулланаман”

Бир киши фарзандини койиб танбеҳ бераётганда қўшниси “ўғлингиз мўмин-қобил бола-ку, нега бунча уришасиз?” дебди.

– Бу бола фақат айтганимни қилади, шунинг учун уришяпман, – жавоб берибди ота.

– Айтганингизни қилса яхши-ку, ишидан кўнглингиз тўлмаяптими? – ҳайрон бўлибди қўшни.

– Ишидан кўнглим тўқ, камчилиги йўқ. Лекин қачонгача мен айтганимдан кейин қилади? Айтмаганларим-чи? Ўзи билиб ишини қилса, эътирозим йўқ. Шунисига куйинаман, - деб айтган экан.

Кеча ҳокимлик соатида муҳим масалалар муҳокамаси чоғида вилоят ҳокимининг туман ва шаҳарлар ҳокимлари, мутасадди раҳбарлар билан мулоқотига гувоҳ бўлиб, шу ҳолат ёдимга тушди.

Вилоятда туризмни янада ривожлантириш, маҳаллий ва хорижлик сайёҳлар учун қулай шароит яратиш масаласи муҳокама қилинганда, вилоят раҳбари санитария-гигиена шохобчалари ҳолатига алоҳида эътибор қаратди. Шаҳарда ва вилоятнинг бошқа ҳудудларида ҳам сайёҳлик объектлари атрофида, бозорларда ва катта йўл ёқасидаги бундай шохобчалар талабга жавоб бермаслиги, масъуллар бунга умуман эътибор бермаётганини таъкидлади. Айниқса, ёқилғи қуйиш шохобчаларида санитария-гигиена нуқталари ташкил этиш талаби мажбурий бўлса-да, буни тадбиркорлар ҳам ва шу соҳани назорат қиладиган масъуллар ҳам унутиб қўйгани танқид қилинди. Бунинг учун мутасаддилардан, ҳудудлар раҳбарларидан изоҳ сўралди. Жавоб эса кутилганидек – “жойига қўямиз”, “эътиборсизлик қилибман”, “ўзим бориб ўрганаман”.

Эсимда, ўтган йил ҳам худди шу масала ҳокимлик соатида муҳокама қилиниб, йўл бўйидаги ёқилғи қуйиш шохобчаларидаги ва махсус ташкил этилган санитария-гигиена нуқталари ҳолати ўрганилган ҳолда видеолавҳа намойиш этилганди. Айрим мутасаддиларга чора кўрилганди. Шундан сўнг бундай масканлар тартибга келиб, изга тушганди.

Орадан бир йил ўтиб, яна шу масала оғриқли нуқта сифатида вилоят раҳбари даражасида муҳокама этилгани мутасаддилар ҳам фақат айтилса, топшириқ берилса, бажаришга ўрганиб қолганидан далолат беради.

Нима, йўл бўйида савдо ва хизмат кўрсатиш объекти ташкил этиб, бундан манфаат кўраётган тадбиркор битта санитария-гигиена шохобчасини тоза-озода сақлаб туролмайдими? Бу унга мажбурият сифатида белгилаб қўйилган бўлса-чи? Тегишли назорат идоралари масъуллари, ҳудудлар раҳбарлари-чи? Улар шу йўлдан ўтмайдими ёки бундай шохобчаларга кирмайдими? Киради, кўради, лекин ўша тадбиркорга, объект эгасига ёмон кўринишни истамайди ёки ўзининг манфаатига зид қилишни хоҳламайди. Бошқа қандай хулосага келиш мумкин?

Ҳа, дарвоқе, муҳокамалар чоғида йиллар давомида ҳал этилмаган айрим масалалар юзасидан изоҳ сўралганда раҳбарлар “икки ойда бажарамиз”, “кейинги чоракда якунига етади”, “ўзим ичига кираман” деб жавоб берди.

Ўйланиб қоласан киши, бир неча йилда бажарилмаган юмуш, вазифани қандай қилиб қисқа вақтда уддалаш мумкин. Балки баъзи лойиҳаларни бажариш мумкиндир. Лекин йиғилишдан йиғилишгача айтиладиган гаплар билан ўзини ва бошқаларни алдашдан наф нима? Лавозимда узоқ қолишми?

**Ғолиб ҲАСАНОВ.**

# Kattaqo‘rg‘onda suv turizmi maskani ochildi



*Kattaqo‘rg‘on suv ombori hududida barpo etilgan “Madaniyat ekoturizm klasteri” oilaviy dam olish maskani foydalanishga topshirildi.*

*Shu munosabat bilan o‘tkazilgan tadbirda viloyat turizm boshqarmasi va Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi mas’ullari ishtirok etdi.*

*- Loyihamiz uch bosqichda amalga oshiriladi, - deydi tadbirkor Safar Ergashev. - Birinchi bosqichda bu yerga 3 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ yo‘naltirilib, 2 ming aholiga xizmat ko‘rsatishi uchun qulaylik va imkoniyatlar yaratildi. Keyingi bosqichlarda suv ombori bo‘yida besh yulduzli mehmonxona va sanatoriy qurish rejalashtirilgan. Loyihani 2026-yilda to‘liq amalga oshirish va 15 ming nafar mahalliy va xorijlik sayyohlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratish ko‘zda tutilgan.*

*Yangi dam olish maskanida konsert shou dasturi namoyish etildi.*

**B.MUSTANOV.**

## INDALLOSINI AYTGANDA...

**Salim DONIYOROV,**
**jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori:**



- Futbolchi bo‘ladimi, shaxmatchimi, matematikmi, tilshunosmi, kimyogarmi ter to‘kib, bilim va mahoratini oshirib, nimagadir erishganni “kiprigimga o‘tqazaman”, deyaverib, ularni izidan chiqarvormaylik.

# “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlari 24-may kuni o‘tkaziladi

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi maktablarda “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlari 24-may, shanba kuni o‘tkazilishini ma’lum qildi.**

Joriy o‘quv yilining oxirgi kuni 25-may, yakshanba – dam olish kuniga to‘g‘ri kelgani sababli “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlari 24-may - shanba kuni o‘tkazilishi belgilangan.

Maktablarda “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlarini ko‘tarinki kayfiyatda, tantanalar bilan o‘tkazish an’anasi bu yil ham davom etadi. Barcha ta’lim tashkilotlariga “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar hamda namunaviy ssenariylar yetkazilgan.

Mazkur tavsiyalarga muvofiq, turli dabdababozlik va o‘quvchilar yoki ularning ota-onalaridan pul mablag‘larini yig‘ishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bitiruv oqshomlarini turli restoranlar va to‘yxonalarda nishonlamaslik, haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar avtomobillarda guruh-guruh bo‘lib harakatlanishi yoki cho‘milish havzalariga borishining oldini olish belgilangan.

Tadbirni ertalab soat 8:00 dan 9:00 ga qadar o‘tkazish, unga faqatgina 1-, 4-, 9-, 11-sinf o‘quvchilarini jalb etish, yil davomida a’lo baholarga o‘qib, eng yuqori reyting ko‘rsatkichlariga erishgan iqtidorli bitiruvchilarni rag‘batlantirish tavsiya qilingan.

Bugun viloyatdagi 1268 ta umumta’lim maktabida 776905 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Shundan 9-sinf bitiruvchilari 71839 nafar, 11-sinf bitiruvchilari 49841 nafarni tashkil etadi.

9-sinf o‘quvchilariga ona tili va adabiyot/davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun), matematika, O‘zbekiston tarixi, jismoniy tarbiya fanlaridan imtihon bo‘lib o‘tadi. 11-sinf bitiruvchilari esa ona tili va adabiyot/davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun), matematika (asosiy), matematika (chuqurlashtirilgan), O‘zbekiston tarixi, tanlov fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari topshiradi.

11-sinf bitiruvchilari 3 ta majburiy va 2 ta (matematika (chuqurlashtirilgan) variantini tanlagan o‘quvchilar uchun 1 ta) tanlov fanlaridan imtihonlar topshiradi.

# Tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi

## 2030-yilgacha aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlandi

**Davlatimiz rahbarining joriy yil 15-may kuni qabul qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlandi.**

Qarorda ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik muammolarning oldini olish va bartaraf etishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlash, ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz kurashish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatimiz a’zolarining ekologik madaniyatini oshirishda aholining barcha qatlamlari qamrab olinganligi, bunda kompleks vazifalar majmuasi belgilab berilganligi nihoyatda ahamiyatlidir. Qarorga ko‘ra, 2030-yilga qadar 3,3 million nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik madaniyat shakllanishiga erishish, 4,2 million nafar umumiy o‘rta ta’lim tizimi tashkilotlari o‘quvchilarida ekologik ta’lim-tarbiyani mustahkamlash, ekologik madaniyatni yuksaltirish belgilandi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda yer osti va yer usti boyliklaridan sof iqtisodiy utilitar-merkantil manfaatlar yo‘lida foydalanish “tabiat–jamiyat–inson” tizimidagi munosabatlarning kun sayin buzilishiga, bu esa o‘z navbatida aql bovar qilmas yangi ekologik muammolarning yuzaga kelishiga olib kelayotganligi sir emas. Bu muammolarni bartaraf etish bugungi kunda insoniyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Prezident qarorida aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unda asosiy mezon ekologik savodxonlik va madaniyat eng avvalo, oiladan boshlanishiga e’tibor qaratilgan.

Gap shundaki, ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog‘liqdir. Agar bu masalaga oiladagi tarbiyadan boshlab e’tibor qaratilmasa, uni maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, keyingi ta’lim bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida mukammal qaror toptirish qiyin bo‘ladi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy kengashi tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan dasturda ham ushbu o‘ta dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Partiyamizning saylovoldi dasturlarida ekologiya fani avvalambor bog‘chalardan boshlanishi, o‘rta ta’limda esa alohida fan sifatida kiritilishi taklifi ilgari surilgan.

Keling, bir mushohada qilaylik. Bularning barchasi nima beradi?

Bolalar bog‘chalarida atrof-muhit, tabiat va ekologik tushunchalar berish, umumta’lim maktablarida asosan, tabiatshunoslik darslarida o‘qituvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. O‘lkamizning o‘simlik va hayvonot dunyosi, yer osti va yer usti boyliklari, ulardan oqilona foydalanishning samarasi, ushbu boyliklarni muhofaza qilish kerakligi haqidagi masalalar bilan yoshlarni maktab partasidan keng tanishtirib borish o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishning darsdan tashqari mashg‘ulotlarda hamda sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarda va ekskursiyalar chog‘ida amalga oshirilishi ham yaxshi samara beradi. Bunda o‘quvchilar o‘rtasida turli mavzularda qiziqarli savol-javoblar, bahs-munozaralar va suhbatlar, tabiat qo‘yniga sayohatlar uyushtirish, ekologik yo‘nalishdagi to‘garaklarni tashkil etish, shu mazmundagi kechalar o‘tkazish o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanadi.

Mahallalarda, korxona-tashkilotlarda esa bu masalaga yanada mas’uliyat bilan yondashish lozim. Aholi yashash joylarini, o‘z uyimiz, hovlimizni toza-ozoda saqlashimiz, chiqindilarni o‘z vaqtida olib ketilishini ta’minlashimiz, daraxtzorlar, ko‘kalamzor maskanlarni ko‘proq yaratib, tabiatga nihoyatda ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz zarur. Yosh avlod bu ezgu ishlarni biz, kattalardan o‘rganishi va bizdan o‘rnak olishini doimo his etishimiz kerak.

**Xo‘jaqul MUHAMMADIYEV,**
**O‘zbekiston Ekologik partiyasi viloyat kengashi ijroiya qo‘mitasi raisi.**

**Viloyatda bugungi kunda 1268 ta umumta'lim, 18 ta ixtisoslashtirilgan, 1 ta Prezident maktabi, 46 ta nodavlat maktab, 4090 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Maktablarda 61,5 ming o'qituvchi 776,9 ming o'quvchiga ta'lim-tarbiya bermoqda.**

# Ikki yuz ellikka yaqin pedagog ming dollar ish haqi olyapti

## yoki Samarqandda maktab ta'limi bo'yicha muhim qaydlar



**BIROR BOLA BOG'CHADAN CHETDA QOLMAYDI**

Viloyatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni bog'chaga qamrab olish darajasi 74,3 foizni tashkil etadi. Yana bir muhim ma'lumot, sohada nodavlat sektorning ulushi 2017-yilda 1 foiz bo'lgani holda, ayni paytda bu ko'rsatkich qariyb 44,8 foizni tashkil qilmoqda.

O'tgan davr mobaynida ta'limning muqobil shakllaridan biri - 1406 ta majburiy (bepul) bir yillik maktab ta'limiga tayyorlov guruhlariga 32 mingdan ortiq 6 yoshli bolalar jalb qilinib, qamrov 40 foizdan 95 foizga yetkazildi.

Bolalarning ilk rivojlanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini yanada kengaytirish maqsadida bog'cha yoshidagilar qamrov darajasi past bo'lgan viloyat markazidan olis va chekka Nurobod, Qo'shrabot, Bulung'ur, Kattaqo'rg'on, Past Darg'om va Urgut tumanlarida "Aqlvoy" loyihasi doirasida 7 ta "Isuzu" rusumli avtobus negizida 40 ta mobil guruhlariga 600 dan ziyod bolalar maktabgacha ta'limga qamrab olindi.

Viloyat bo'yicha "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarning 5271 nafar farzandi ota-onalari oylik badal to'lovidan ozod qilingan.

**YANGI MAKTAB, YANGI IMKONIYATLAR**

2017-2025-yillarda viloyatda 17 ta yangi maktab qurilgan. 413 ta maktab rekonstruksiya qilinib, qo'shimcha o'quv binolari qurilgan hamda 172 ta umumta'lim maktabining mavjud binosi mukammal ta'mirlangan.

2016-yilda viloyatda 386 ta 2 va undan ortiq koeffitsiyentli maktab bor edi va yuqorida qayd qilingan qurilishlar natijasida joriy yilda bu raqam 40 taga tushdi.

Darvoqe, 2016-yilgacha umumta'lim maktablarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash uchun o'rtacha 35-40 milliard so'm mablag' ajratilgan. 2025-yilda bu ko'rsatkich 405,9 milliard so'mni tashkil qilib, oldingi yillarga nisbatan o'rtacha 10 barobar ko'p mablag' ajratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadbirkorlar tomonidan 57 milliard so'm evaziga 3120 o'rinli 13 ta yangi maktab, sport zal, oshxona qurib berilganini alohida qayd etish lozim.

Bundan tashqari, tizimda olib borilgan islohotlar natijasida viloyatdagi ta'lim muassasalaridagi kompyuter sinfxonalari soni 2017 yilda 521 ta bo'lsa, 2025-yilda maktablar 1485 ta zamonaviy kompyuter sinflari bilan ta'minlandi.

Shuningdek, bugungi kunda 1131 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi 2131 elektron doskalar bilan ta'minlandi.

Oldingi o'quv yilida viloyatdagi 67 ta maktab yangi baholash tizimiga o'tkazildi. 2024-2025- o'quv yilida qo'shimcha yana 50 ta maktabda yangi baxolash tizimi joriy etilib, ularning soni 117 taga yetkazildi.

**XARAJAT, HARAKAT ...**

Joriy yilda 9 ta yangi nodavlat umumta'lim maktabi tashkil etilib, ularning soni 43 taga yetkazildi.

Bundan tashqari, avvalgi yillarda 20 ta umumta'lim maktabida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 52 tani tashkil qilmoqda.

"Zamonaviy maktab" maqomiga ega bo'lgan maktablar 108 tadan 202 taga yetdi.

O'quvchilarga 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb o'rgatilayotgan maktablar 16 tadan 96 taga (+80ta) yetkazildi.

Joriy o'quv yilida maktablarga 26 nafar xorijiy mutaxassis o'qituvchilar jalb qilindi. Xususan, Rossiya Federatsiyasidan 14 nafar, Filippin davlatidan 9 nafar, Hindistondan 1 nafar, Fransiyadan 1 nafar, Kanadadan 1 nafar o'qituvchi farzandlarimizga saboq bermoqda.

Viloyatdagi 8 nafar fransuz tili o'qituvchilari Fransiyada malaka oshirdi.

Bu kabi ishlar natijasida milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar 3526 nafarga yetdi.

Qayd etish lozim, viloyatimiz o'qituvchilaridan 84 nafari oylik maoshidan tashqari har oyda vazir jamg'armasidan 5,5 million so'mdan ustama olmoqda.

2021-yil 5 nafar, 2022-yilda 52 nafar, 2023-yil 71 nafar, 2024-yil 135 nafar hamda joriy yilda 249 nafar pedagoglarimiz oylik ish haqi 1000 dollardan oshdi.

Viloyatda olis va chekka hududlardagi ta'lim muassasalariga boshqa viloyat va tumanlardan kelib dars beradigan o'qituvchilar 353 nafar (Navoiydan 152 nafar, Samarqanddan 100 nafar, Qashqadaryodan 36 nafar, Andijondan 18 nafar, Jizzaxdan 10 nafar, Xorazmdan 8 nafar, Sirdaryodan 7 nafar, Buxorodan 7 nafar, Farg'onadan 5 nafar, Surxondaryodan 4 nafar, Namangandan 3 nafar, Toshkentdan 3 nafar)ni tashkil etadi.

**Samad ELMURODOV,**
**viloyat hokimi o'rinbosari kotibiyat mudiri.**

**Maktab ta'lim bilan birga tarbiya ham beradigan dargoh. Aslida Sharqda ta'lim-tarbiya birgalikda olib borilgan va bu an'ana asrlar davomida oilada, ta'lim dargohlarida qo'llanilib kelinadi. Ayniqsa, oilada qiz bolalar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Yevropa davlatlaridan farqli o'laroq, bizda qizlar ibo-hayosi bilan qadrlanadi.**



# O'zi go'zal, tarbiyasi-chi?

Ammo keyingi yillarda maktab o'quvchi-qizlari o'rtasida farzand ko'rish holatlari kuzatilyapti. Balog'atga yetmagan qizlarning erta tug'ruqni boshidan kechirishi bir tomondan uning salomatligiga xavf solsa, ikkinchi tomondan, nikohsiz farzand tug'ilishi milliy qadriyatlarimizga zid bo'lib, sharmandali holat hisoblanadi. Bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish uchun maktabda o'quvchi-qizlarga qanday tarbiya beriladi?

- Bilasizmi, aslida notinch oila farzandlari orasidan axloqsiz qizlar chiqadi, - deydi Toyloq tumanidagi 58-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Mavsuma Mirvafoyeva. – Gohida risoladagidek oila farzandida ham jinsiy hayotga moyillik sezilib turadi. Internet sabab ba'zida 5-6-sinf qizlarda erta uyg'onish holati kuzatilyapti. O'quvchi qizlarni boshqa narsaga chalg'imasligi, bo'sh vaqtini qoldirmaslik uchun darsdan keyin ularni to'garaklarga jalb etganmiz. Maktabda 270 nafar o'quvchi-qizlar bo'lsa, ular bilan har oyda turli mavzularda suhbatlar o'tkazamiz. Bundan tashqari, tuman markaziy poliklinikasidan har olti oyda 7-11-sinf o'quvchilarini bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazib turamiz. O'quvchilarning tibbiy daftarchasiga ham tibbiy ko'rik natijasi qayd etib boriladi. Qizlar bilan muntazam shug'ullanib kelganimiz uchun ham maktabimizda bunday noxush holatlar uchragani yo'q. Ota-onalar, qolaversa, maktabimiz joylashgan Uzunqishloq mahalla ahli ham har tomonlama bizga yordam beradi.

Shu o'rinda aytishim mumkinki, maktabimiz bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi bo'yicha tumanda birinchi o'rinda turadi. O'quvchilarimiz fan olimpiadalari, turli ko'rik-tanlovlarda ham tuman va viloyatda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelyapti.

Darhaqiqat, qiz bola oilada sharqona mentalitetimiz asosida tarbiyalanadi. Ammo ba'zi oilalarda onaning chet elga ishga ketishi yoki er-xotinning farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizligi, o'zaro urush-janjallari farzandlarning nazoratsiz qolishiga sabab bo'ladi. Fakt va raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2024-yilda viloyatda 7 holatda maktab o'quvchi-qizlari tomonidan erta tug'ruq holati aniqlangan.

- Qizlar tarbiyasi bilan muntazam shug'ullanamiz, - deydi maktab direktorlaridan biri. – Ayniqsa, psixolog qizlarning yurish-turishini nazorat qilib boradi. Bir kuni maktab psixologi menga yuqori sinf qizlaridan birining fiziologik holati yaxshi emasligini, uni tibbiy ko'rikdan o'tkazish kerakligini aytdi. Qiz bolaning ko'rinishidan hech qanday homiladorlik alomatlari sezilmasa-da, maktab psixologi qizning holatida o'zgarishlar borligini bildirdi. O'sha qizni noqulay holatga solmaslik uchun sinfidagi barcha qizlarni tibbiy ko'rikka yubordim. O'sha kuni psixolog shubhalangan qiz "qo'shimcha darsimga borishim kerak", deb tibbiy ko'rikdan o'tmasdan ketib qolibdi. Oradan ko'p o'tmay, o'sha qiz ona bo'ldi.

Aslida oilada qizning tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilgan bo'lib, onasi chet elda edi. Ona hech narsa bo'lmagandek xorijdan kelib, qizini xususiy shifoxonalardan biriga yotqizdi. Yosh qizning ona bo'lgani shov-shuv bo'lib ketdi. Qizning onasi bu sharmandali holatdan uyalmadi ham. Biz, maktab jamoasi esa ayb ish qilgandek boshimiz egilib qoldi.

Afsuski, keyingi paytlarda qizlar tarbiyasida jiddiy o'zgarishlar kuzatilyapti. To'g'ri, viloyatda joriy yilda qizlarning erta tug'ish holatlari aniqlanmagan. Ammo ijtimoiy tarmoqlar orqali boshqa hududlarda bu kabi ko'ngilsiz holatlar sodir bo'layotganidan xabardormiz. Oilada yetarli tarbiya olmagan qizlarga ba'zida maktabdagi tarbiya ham ta'sir qilmayapti.

Achinarlisi, maktab o'quvchilari o'rtasida ko'ngilni xira qiladigan boshqa noxush holatlar ham aniqlanyapti. Keyingi yillarda maktab o'quvchilari orasida elektron sigaretalarni chekuvchilar soni ortgan. Tahlillarga ko'ra, 30 mingga yaqin o'g'il bolalar va 9 mingga yaqin qizlar chekishga moyil bo'lsa, 12 ming nafardan ortiq bolalar va o'smirlar ushbu sigaretalarni muntazam chekishi aniqlagan. Shuning uchun yaqinda Oliy Majlis Senatida elektron sigaretalarni olib kelish, sotish, chekishga qarshi qonun ma'qullandi.

Biz bugun bolalar tarbiyasi borasida jiddiy o'ylashimiz kerakligini davrning o'zi taqozo etyapti. Xo'sh, ularni qanday tarbiyalashimiz kerak, degan savol bugun hammani o'ylantirishi lozim. Masalan, yapon maktablarida yigit-qizlarning ishqiy munosabatlariga yo'l qo'yilmas ekan. Bu esa turli ko'ngilsiz hodisalarning oldini olarkan. Bizda ham qizlarning tarbiyasi borasida alohida dastur ishlab chiqilsa va maktablarda ommalashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunonchi, Abdulla Avloniy aytganidek: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur".

**Xurshida ERNAZAROVA,**
**"Zarafshon" muxbiri.**

**BU FAKT!**

**Milliy statistika qo'mitasiga ko'ra, 2024/2025-o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning (o'rindoshlarsiz) umumiy soni 564,9 ming nafarni tashkil etgan.**

**Ushbu ko'rsatkich 2015/2016-o'quv yili boshiga nisbatan taqqoslaganda 170,9 ming nafarga yoki 43,4 foizga oshgan.**

# O'quvchilar davlat tilida imtihon topshiradi

## U qanday amalga oshiriladi?

**Bugun viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami 776905 nafar o'quvchi ta'lim olsa, ulardan 62607 nafari rus, 7171 nafari tojik sinflarda o'qiydi.**

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 20-fevraldagi tegishli buyrug'iga binoan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9- va 11-sinf bitiruvchilari uchun joriy yilgi yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari 26 maydan boshlanadi.

Joriy o'quv yilidan boshlab ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan sinf bitiruvchilari uchun davlat tili fani majburiy imtihon sifatida belgilanmoqda. Xo'sh, ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan sinf bitiruvchilari uchun davlat tili fanidan imtihonlar qay tartibda olinadi?

- Bu yil rus sinflari bitiruvchilari ikkinchi yil davlat tilidan yozma imtihon topshiradi, - deydi Samarqand shahridagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi Mastura Abdurahimova. - Imtihon biletlaridagi savollarning barchasi o'tilgan mavzular bo'yicha tayyorlangan. Savollar qiyin emas, o'quvchi yaxshi tayyorlansa, imtihondan bemalol o'tadi. Faqat muammo ayrim bolalarning o'qishga qiziqmasligida. Afsuski, imtihon mas'uliyatini sezmaydiganlar ham bor.

**9-SINFLAR UCHUN IMTIHON QAY TARTIBDA O'TKAZILADI?**

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinf o'quvchilariga imtihonda berilgan topshiriqlar bo'yicha 120 daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 2 ta bilet taqdim etiladi. Biletda o'quvchiga bitta matn va 5 ta topshiriq beriladi.

Topshiriqlarning 2 tasi bilishga, 2 tasi qo'llashga, 1 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Yozma savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlar beriladi. Bilet savollariga tayyorgarlik ko'rish va javob berish uchun umumiy 120 daqiqa vaqt beriladi.

**11-SINFLARDA IMTIHON QANDAY OLINADI?**

Imtihon ishining har bir varianti va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta savoldan iborat bo'lib, qisqa javobli, ko'p javobli, taqqoslama va bir javobli topshiriqlardan iborat. Shulardan 3 ta topshiriqqa yozma javob beriladi. Bir javobli savollarga tanlash uchun variant berilmaydi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari o'zbek tili fani bo'yicha umumta'lim maktablarining o'zbek tili fani dasturini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Biletda o'quvchiga 17 ta qisqa javobli, ko'p javobli, taqqoslama va bir javobli, 3 ta yozma shaklda topshiriqlar beriladi. Bilet savollariga javob berish uchun 150 daqiqa vaqt beriladi.

- Bilet savoliga javob bera olmagan bitiruvchiga yakuniy attestatsiya komissiyasi tomonidan ikkinchi marotaba bilet olishga ruxsat beriladi, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish shu'basi boshlig'i Roziq Fayziyev. - Bitiruvchi olgan ikkinchi biletga ham javob bera olmasa, unga yakuniy attestatsiyaning bahosi sifatida «qoniqarsiz» baho qo'yiladi va uchinchi marotaba bilet olishga ruxsat berilmaydi.

Maktab pedagogik kengashining qarori asosida unga yakuniy attestatsiya tugagan kundan keyin ikki hafta o'tgach, mazkur fandan qayta yakuniy attestatsiyadan o'tishga ruxsat berilishi mumkin.

Bir yoki ikki fandan o'tkazilgan yakuniy attestatsiyada qoniqarsiz baho olgan bitiruvchilarga oxirgi yakuniy attestatsiyadan keyin ikki hafta o'tgach, qoniqarsiz baho olgan fanidan qayta yakuniy attestatsiyadan o'tish huquqi beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomga asosan yillik baho va yakuniy attestatsiyadan «qoniqarsiz» baho olgan bitiruvchilar shu sinfda qayta o'qishga qoldiriladi.

**X.ERGASHOVA.**

# ҚОРАТЕПА атрофида

**Ургут туманидаги Қоратепа сув омбори сайёҳлик маскани сифатида тобора оммалашмоқда. Ҳар куни минглаб меҳмонлар бу гўзал масканга келиб, ҳавзанинг зилол сувлари, табиатнинг бетакрор манзараларидан баҳра олмоқда. Сув омбори атрофида мароқли ҳордиқ чиқариш учун тадбиркорлар томонидан етарли шароит яратиб қўйилган. Хавфсиз чўмилиш ҳудудлари, ҳавзада сузиш учун ўнга яқин қайиқ дам олувчилар хизматида.**

Бироқ ҳудудда табиат гўзаллигини асраш, ундан оқилона фойдаланиш масаласи муаммога айланиб бормоқда. Қоратепа атрофи турли маиший чиқиндилар билан тўлиб бормоқда. Дам олувчилар томонидан ташлаб кетилаётган бир марталик идишлар, болалар тагликлари ва бошқа чиқиндилар ҳудуд экологиясига жиддий зарар етказмоқда. Атроф-муҳитнинг бу тарзда ифлосланиши инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатиши ҳеч гап эмас.

Маълумотларга кўра, агар ҳафтасига ўртача 2000 нафар меҳмон Қоратепага ташриф буюрса ва уларнинг ҳар биридан 5 донадан чиқинди қолса, 3 ой давомида камида 10 тонна чиқинди тўпланар экан. Бу эса жиддий экологик муаммога олиб келиши мумкин.

Нима учун бу ҳолатга Қоратепа ҳудудида яшовчи аҳоли, тадбиркорлик субъектлари бефарқ қараб турибди? Дам олувчилар-чи? Улар сайёҳлик маданияти ва масъулиятини қачон ҳис қилади? Табиат қўйнида дам олгач, озиқ-овқат қолдиқлари ёки маиший чиқиндиларни йиғиб олишни биров ўргатиши керакми? Наҳотки уларни тўплаб, махсус ажратилган жойларга ташлаб кетиш шунчалик мураккаб бўлса? Нима учун маҳалла, экология ва табиатни муҳофаза қилувчи ташкилотлар бу борада назоратни кучайтирмаяпти?



**Авазбек ҲАМРОҚУЛОВ,**
**Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети талабаси.**

# “Самарқандим”

## журналининг биринчи сони нашрдан чиқди

**Самарқанд давлат университети муассислигида тайёрланган журналдан ижтимоий-сиёсий, илмий-маърифий, тарихий ва оммабоп йўналишдаги материаллар жой эгаллаган.**




Ранг-баранг, юқори сифатда чоп этилган журнал Самарқанд тарихини кенг ёритиш ва тарғиб қилишни, Самарқандда туғилган, яшаган, фаолият кўрсатган улуғларнинг ҳаётини ёшларимизга ибрат қилиб кўрсатишни мақсад қилган. Унда нафақат Самарқанд, балки мамлакатимиз ва дунё зиёлиларининг Самарқанд тарихи-ю тавсифи ҳақидаги мақолалари, тадқиқотлари, таклиф ва мулоҳазаларига кенг ўрин берилган.

Журналнинг нишона сонидан фарқли ўлароқ, бу галги саҳифаларида Президентимизнинг хорижий мамлакатларга ўтган йилги расмий ташрифлари, халқаро компаниялар раҳбарлари билан учрашувлари суратларда акс эттирилган. Ўзбекистон Қаҳрамони Озод Шарафиддинов, Ўзбекистон халқ шоирлари Сирожиддин Саййид, Хуршид Давроннинг Самарқанд ҳақидаги, журнал таҳририятининг ҳудудларда уюштирилган илмий экспедициялар хусусидаги мақолалари, университет профессор-ўқитувчиларининг илмий изланишлари хулосалари чоп этилган.

Булардан ташқари, “Самарқандим”да Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратлари, атоқли ёзувчи Чингиз Айтматов, Ўзбекистон Республикаси фан арбоби Анвар Зоҳидовнинг Ватан, она-Замин ҳақидаги иқтибослари, самарқандлик эзгу фазилатли шахслар хотираларидан баҳраманд бўласиз.

**Олимликни игна билан қудуқ қазишга менгзашади. Чунки илм-фан сирларини ўрганиш инсондан узоқ йиллик меҳнат, сабр-тоқат, матонат талаб қилади. Аслида фан номзоди, доцент, фан доктори, профессор, академик каби илмий атамалар замирида қанчадан-қанча машаққатли меҳнат ва уйқусиз тунлар ётганини шу кўчадан ўтган инсонларгина англайдилар. Шундай инсонлардан бири “Навоий кон-металлургия комбинати” акциядорлик жамияти марказий илмий-тадқиқот лабораторияси бош муҳандиси, Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети профессори, кимё фанлари доктори Амрилло Музафаровдир.**

# Амалиётчи олим



Устоз 1983 йилда мактабни тамомлаб, Самарқанд давлат университетининг физика факультетига ўқишга кирди. 1990 йилда университетни муҳандис-физик мутахассислиги бўйича битириб, Тошкент давлат педагогика институтининг Навоий филиалида иш бошлади.

1994-1995 йилларда Ўзбекистон Фанлар академияси Ядро физикаси институтида стажёр-тадқиқотчи ва 1996-1998 йилларда мақсадли аспирантураси аспиранти бўлди. Сўнг Навоий давлат педагогика институтида катта ўқитувчи лавозимида меҳнат қилди.

2001 йилдан фаолиятини Навоий кон-металлургия комбинатида давом эттирди. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ядро физикаси институти ва Навоий кон-металлургия комбинатига қарашли тадқиқотнинг махсус усуллари қўшма бюросининг бошлиғи, 2006 йил январ ойидан 2013 йилгача НКМК марказий илмий-тадқиқот лабораторияси атроф-муҳит муҳофазаси ва радиатsiон-дозиметрик назорат лабораториясининг бошлиғи лавозимида фаолият кўрсатди. 2013 йилдан ҳозирги кунгача марказий илмий-тадқиқот лабораторияси бош муҳандиси лавозимида ишлаб келмоқда.

А.Музафаровнинг бевосита иштирокида марказий илмий-тадқиқот лабораторияси таркибидаги аналитик лаборатория ҳамда атроф-муҳит муҳофазаси ва радиатsiон-дозиметрик лабораторияларида 25 дан ортиқ ўлчовларни бажариш усуллари ишлаб чиқилиб, Ўзбекистон Республикаси “Ўзстандарт” агентлигида аттестациядан ўтказилди ва амалиётга жорий этилди.

Унинг фаолияти қимматбаҳо металларни ишлаб чиқиш жараёнида аналитик назоратни таъминлашга қаратилган. Бугунги кунда шу ишни амалга ошириш учун 180 тадан ортиқ ҳар хил ўлчовларни бажариш усуллари амалиётда қўлланилган ва бу аналитик назорат усуллари халқаро стандартларга мувофиқ рақобатбардош юқори сифатли маҳсулотларнинг Навоий кон-металлургия комбинатида ишлаб чиқарилишини кафолатлайди.

Устоз “Экспериментал физиканинг асбоблари ва усуллари” ихтисослиги бўйича дастлаб фалсафа доктори, сўнгра фан доктори илмий даражасини олиб, профессор илмий унвонига эга бўлди.

Олимнинг 3 та ўқув қўлланмаси, 6 та монографияси, 10 дан ортиқ услубий-методик қўлланмалари, 150 дан ортиқ илмий мақолалари чоп этилган.

Устоз оилада намунали ота. Турмуш ўртоғи Гулчеҳра янга билан учта ўғилни тарбиялаб, вояга етказди.

Амрилло Музафаровни қутлуғ 60 ёши билан табриклаб, узоқ умр, сиҳат-саломатлик, бахт-саодат ва бундан кейинги илмий-педагогик фаолиятига зафарлар тилаймиз.

**Шавкат САЛИМОВ,**
**Навоий кон-металлургия комбинати лабораторияси бошлиғи,**
**Сафар ҚУРБОННИЁЗОВ,**
**Самарқанд давлат университети доценти.**

**Aholi, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb qilish bugungi kun talabi. Ayni paytda yurtimizda 10 milliondan ziyod aholi ommaviy sport bilan shug‘ullanmoqda. Barcha tuman va shaharlarda, ta’lim muassasalarida, mehnat jamoalarida turli musobaqalar o‘tkazib kelinmoqda.**

# Har bir musobaqa ommaviy sportga yo‘l ochadi

Yaqinda Oqdaryo tumanida sportning stol tennisi, shaxmat-shashka, futbol va voleybol turlari bo‘yicha ta’lim muassasalari o‘qituvchilari o‘rtasida O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi munosabati bilan "Kasaba uyushmasi Federatsiyasi kubogi” uchun musobaqalar bo‘lib o‘tdi.

“Sog‘lom tanda sifatli ta’lim” shiori ostida tashkil etilgan bellashuvlarda o‘nga yaqin maktab jamoalarining sportchi o‘qituvchilari qatnashdi. Mazkur musobaqalarda tumandagi 30-umumta’lim maktabi o‘qituvchilari ham stol tennisi va voleybol bellashuvlarida ishtirok etishdi.

G‘oliblar tashkilotchilarning faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

**Dildora RAJABOVA,**
**Oqdaryo tumanidagi 30-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi.**

# Ikki davlat arxivchilari tajriba almashdi

**Tatariston Respublikasi arxiv ishi bo‘yicha davlat qo‘mitasi delegatsiyasi viloyat davlat arxiv ishi boshqarmasi faoliyati bilan tanishdi.**

Bu yerda tashkil etilgan uchrashuvda Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi direktori U.Yusupov hamda Tatariston Respublikasi arxiv ishi bo‘yicha davlat qo‘mitasi raisi G.Gabduraxmanova o‘zaro hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha 2025-2027-yillar uchun belgilangan amaliy harakatlar rejasini imzoladi.

- Ikki yilga mo‘ljallangan ushbu harakatlarda ikki tomon uchun ham foydali bo‘lgan rejalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan, - deydi G.Gabduraxmanova. - Samarqand davlat arxivi faoliyatini o‘rganish davrida hujjatlarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash, ulardan foydalanish va davlat tomonidan saqlashga topshirish jarayonlarini ko‘zdan kechirdik. Hujjatlarni elektron raqamlash, nusxalash hamda tarixiy hujjatlarni saqlash jarayonlarini ko‘rib, samarqandlik arxivchilardan ko‘p narsani o‘rganib, tajriba orttirish mumkin degan xulosaga keldik.

Tashrif davomida mehmonlar Samarqand tumani davlat arxivi faoliyatini ham o‘rgandi va bo‘lib o‘tgan davra suhbatida arxiv ishi bo‘yicha kelgusidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

**D.TO‘XTAYEV.**

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

# O‘QISHGA MARHAMAT!

**O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi Samarqand ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati 2025-2026-o‘quv yili uchun 1- va 5-sinflarga hamda 6-7-8- sinflarga bo‘sh o‘rinlarga quyidagi ixtisosliklar bo‘yicha sinov asosida qabul e’lon qiladi.**

1. *Dastgohli rangtasvir rassomi;*
2. *Mahobatli rangtasvir rassomi;*
3. *Badiiy kulolchilik usta-rassomi;*
4. *Haykaltaroshlik;*
5. *Grafika rassomi;*
6. *Badiiy ganchkor o‘ymakorligi usta-rassomi;*
7. *Liboslar dizayneri;*
8. *Interye’r dizayneri;*
9. *Arxitektura dizayneri;*
10. *Xalq cholg‘ulari ijrochiligi rubob, doira;*
11. *Fortepiano ijrochiligi.*

O‘quvchilar tanlov asosida o‘qishga qabul qilinadi.

**Hujjatlar 2025-yil 1-iyundan 30-iyunga qadar qabul qilinadi.**

1-iyuldan 15-iyul kuniga qadar ijodiy sinovlar o‘tkaziladi.

Sinf xonalari zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan, mashg‘ulotlar 2 navbatda olib boriladi. Dastur davlat ta’lim talablariga asoslangan. Qo‘shimcha to‘garaklar barcha fanlar hamda sport, san’at yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning xalqaro, respublika, viloyat miqyosida o‘tkaziladigan turli ko‘rik-tanlovlarda va ko‘rgazmalarda muntazam ishtirok etib borishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Chekka hududlar va tumanlardan kelib o‘qiydigan o‘quvchilar yotoqxona bilan ta’minlanadi.

11-sinf bitiruvchi o‘quvchilariga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘rta maxsus ma’lumot to‘g‘risidagi (ishlash huquqini beruvchi) diplom beriladi.

**Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shahri, Bibixonim ko‘chasi 1-uy.**

**Mo‘ljal: Past Darg‘om tuman elektr ta’minoti korxonasi.**

**Telefon raqamlarimiz: +99891-543-64-16, +99890-603-16-70, +99890-270-35-66.**





## DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Muxtarova Kukiga (2008-yil 30-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Farhod ko‘chasi, 34-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Pulatova Shoira Raximovnaga (2024-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Mirsadiyev Mirvasliga (2023-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko‘chasi, 80-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Daurova Sanamga (2024-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Nabiyev Faxrutdin Zaynitdinovichga (2025-yil 13-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Oblokulova Sayyora Almasovnaga (2023-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne’matilloyevich notarial idorasida marhum Karakulov Erkin Suyunovichga (2024-yil 14-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahmonov Sarvar Ne’matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 60-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne’matilloyevich notarial idorasida marhum Salaxova Alfiya Variantovnaga (2024-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahmonov Sarvar Ne’matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 60-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Faxriyeva Xosiyatga (2016-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Fayziyev Nurullaga (2019-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Bazarov Amonga (1986-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Buriyev Safar Kuvanovichga (2023-yil 21-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Axrorov Dilmurod Ergashevichga (2024-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Bekbayev Jalil Ravonovichga (2023-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.**

Мулоҳаза учун мавзу

**Яқинда бир танишим янги машина олгани, уни қўшни вилоятда ишлайдиган синглиси номига расмийлаштирганини айтиб қолди. Мен эса ҳозир ҳамма нарса ошкора, бемалол ўзининг номига хоҳлаганча машина олиш мумкинлигини айтдим. «Келинингиз билан мен темир дафтарда турамиз. Агар машина олсак, дафтардан чиқаришади, яъни кўп имтиёзлардан бебаҳра қоламан», деди у.**

# ИМТИЁЗ



## Қачон, кимга ва нима учун керак?

Тўғриси, бу гаплардан кейин қўлимга қалам олдим.

Изоҳли луғатларда «Имтиёз» сўзи «Муайян сабабларга кўра айрим шахслар ёки ташкилотларга бериладиган алоҳида, ортиқча ҳақ-ҳуқуқ, шароит, енгиллик», деб ифодаланган.

Келинг, тасаввуримизни аниқлаштириб олайлик.

Мисол учун, олий тоифали қишлоқ ўқитувчиси агар у бир тумандан бошқа туманга ўтиб ишласа, яшаш харажатидан ташқари ойлик маошига 50 фоиз қўшимча берилади. Бир вилоятдан иккинчи вилоятга ўтиб ишлаганда эса бу кўрсаткич 100 фоизга оширилади. Демак, бу ерда имтиёз маҳоратли муаллимнинг жамиятга муносиб ҳисса қўшиши учун берилади.

Айтайлик, саёҳатга чиқдик. Орамизда тепаликка қараб юриши қийин бўлган ёшдагилар бор. Лекин биз уларга имтиёз бера олмаймиз. Уларга битта ёрдам кўрсатилиши мумкин, яъни саёҳатчиларни манзилга транспорт орқали олиб чиқиш.

Солиқ соҳасида ҳам уни бўлиб-бўлиб тўлаш енгиллиги бор. Бунда ишчи ўрнини, ишлаб чиқариш жараёнини сақлаб қолган ҳолда давлат олдидаги қарздан қутулиш муддао қилиб белгиланган. Ёки қишлоқ жойларидаги хусусий болалар боғчаларида ишлаётган хотин-қизларга тўғридан-тўғри, яъни суҳбат орқали олийгоҳ талабаси бўлиш имтиёзи берилган. Негаки, у маълумотини ошириб қайтса, ўша ҳудудда таълим-тарбияни яхши йўлга қўяди.

Қишлоқ ёшларининг бандлигини таъминлаш мақсадида уларга экин ерлари аукционсиз тарқатилди. Бунинг устига ҳосил олгунига қадар солиқдан имтиёзлар берилди. Бунинг ҳам мақсадини тушуниб турибсиз.

Қишлоқ жойларда ободончиликни таъминлаш мақсадида «опен бюджет» тизими яратилди. Бу аҳоли учун катта имтиёз аслида. Чунки одамлар ўзлари ҳар куни дуч келадиган муаммони бартараф этиш учун овоз беришади. Ва ана шу оғизбирлик ҳисобига йўллар, болалар боғчалари ва мактаблар таъмирланади, ўйингоҳлар қурилади.

Имтиёз аслида енгиллик, ёрдам, деган тушунчага яқинроқ, яъни ҳаракат қилиб турган одамни икки қўлтиғидан ушлаб қўллаб юборамиз. Жамиятга фойда келтираман деган тадбиркорга эса унинг эркин ишлаши учун шароит яратамиз. Ўқийман, илм оламан деган ёшларга ҳам уларнинг ижтимоий келиб чиқишига қараб енгилликлар яратиляпти. Айниқса, бу ҳолат илм олиш жараёнида жуда кўпайиб кетган.

Тажриба шуни кўрсатяптики, аксарият мамлакатларда бундай имтиёзлар йўқ. Чунки ортиқча имтиёз адолатсизликни келтириб чиқаради, ортиқча енгиллик одамни ланж қилиб қўяди. Ўйлайманки, ушбуни ўқиётган кишилар атрофдаги воқеалардан хулосани аллақачон чиқариб бўлишди. Камина тўрт мучаси соғ, дуппа-дуруст касби бор бўла туриб, яна имтиёз сўраётганларни назарда тутяпман.

Меҳнат қобилиятини вақтинча йўқотиш давлат томонидан қўллаб-қувватланади, яъни бундай кишиларга 1-, 2-, 3-гуруҳ ногиронлиги берилади. Бу – вақтинча имтиёз, яъни ногирон киши белгиланган муддат ичида ўз соғлиғини тиклаб олиши зарур. Минг афсуски, бизда бунинг акси бўляпти. Ногиронлик бир умр бериладиган имтиёз деб тушунадиганлар кўп.

Баъзан раҳбарларнинг қабулларида иштирок этаман. Мурожаат қилувчиларнинг аксарияти имтиёз сўрайди. Уй олишда, кредит олишда, фарзанди ўқишининг шартномасини тўлаб беришда, хуллас, бу важларнинг сон-саноғи йўқ. Биз давлат томонидан берилаётган беминнат имтиёз ва енгилликларга ўрганиб қолмаяпмизми? Болаларимиз ҳам биздан ўрнак олиб, ана шундай турмуш тарзига одатланиб қолишини ўйлаяпмизми?

Аллоҳ инсон зотига битта имтиёз берган, инсондек яшаш. Фикримча, биз ана шу ақидани пухта тушуниб етсак, бировлардан, давлатдан ортиқча имтиёзлар сўрашдан тийиламиз.

Нима дедингиз, азиз муштарий?

**Фармон ТОШЕВ.**

# “Onalarimiz nonni chiqitga tashlaydigan ahvolga kelgandi...”



**Ko‘pincha isrofgarchilik haqida gap ketganda, faqatgina o‘zimiz aniq ko‘rgan mahsulot yoki kiyim-kechak haqida o‘ylaymiz. Deylik, to‘ylarda dasturxonga qo‘yilayotgan ne’matlar haddan ziyod ko‘pligi, ularning ba’zilari, ayniqsa, issiq kunlarda chiqitga tashlanayotganini afsus bilan gapiramiz.**

Bitta nikoh to‘yi bilan bog‘liq bir nechta ma’raka marosimlarni ketma-ket o‘tkazayotganimiz esa oshib tushadi. Bu nafaqat to‘ychi, balki o‘sha, to‘yga borayotganlarning ham isrofgarchiligi, aslida. Nega deysizmi?

-Yaqinda Eron davlatida malaka oshirib kelishimga to‘g‘ri keldi, - deya gapirib beradi oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilaridan biri. – Ularning ish uslubi, har bir berilgan vazifani vijdonan bajarishiga havas bilan qaradik. Shuningdek, eronliklarning yana bir jihati alohida e’tiborimizni tortdi. Ularning oziq-ovqat, ovqatlanish masalasida me’yorga rioya qilishi. Ular nafaqat kundalik ovqatlanishda, balki tug‘ilgan kun va boshqa oilaviy marosimlarda ham isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymas ekan. Nikoh marosimlari ularda allaqachon yemaksiz o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan, faqat ozchilik istovchilargina bunga ro‘yxushlik berar ekan. Ulardan nega bunday yo‘l tutishlarini so‘raganimizda “axir uvoli bor-ku, oziq-ovqat ham ne’mat, uni isrof qilish yaxshimas, biz uning javobidan qo‘rqamiz”, deb aytishdi.

Aslida uvoldan qo‘rqib, nonning ushog‘ini ham ko‘zimizga surib, chetga olib qo‘yadigan bizning xalq emasmidi?! Yaqin-yaqingacha ota-bobolarimiz uvol bo‘ladi, deya o‘zi taomlangan idishdagi yog‘ qoldig‘ini ham tozalab qo‘yishganini yaxshi eslaymiz-ku. Ovqatni to‘kish u yoqda tursin, hatto qotib ketgan nonlardan ham yangicha taom tayyorlaydigan bekalarimiz hozir ham bor.

Oziq-ovqatga, dasturxonga nisbatan bunday isrofgarchilikka qachon ko‘nikdik biz? Vaholanki, ba’zi to‘y-ma’rakalarda biz ko‘zimiz bilan ko‘rgan ne’matlardan tashqari ham qancha ne’mat isrof bo‘layotganini bilasizmi? Qanday deysizmi? Siz va yoningizdagi sheriklaringizga bir tovoq go‘sht va kartoshka qovurdoq keltirildi, deylik. Dasturxonda bu taom kelgunicha yo‘q ne’matlarning o‘zi yo‘q. Qo‘ziqorinli salatlardan tortib qovurilgan va dudlangan baliq, yaxna go‘shtlaru va yana boshqa tansiq yeguliklardan oz-ozdan bo‘lsa-da, tatib ko‘rganingizdan keyin bu taom oshqozoningizga og‘irlik qilmaydimi?

Yeyilmay qolib ketgan mana shu bir tovoq qovurdoqqa qancha mahsulot ketishini juda yaxshi bilasiz. Ammo unga qancha suv sarflanishini-chi? Ma’lumotlarga ko‘ra, bir kilogram mol go‘shti uchun 15 ming litr suv sarflanar ekan. Bir kilogram kartoshka uchun esa 500 litrgacha suv kerak bo‘ladi. Bunda shuncha mahsulotni yetishtirgunga qadar sarflanadigan suv miqdori o‘lchangan.

Endi bularga qo‘shib elektr energiyasi va boshqa manbalarni ham o‘ylab ko‘ring. To‘g‘ri, bugun biz allaqachon to‘y dasturxonlaridagi isrofgarchiliklarni restoran egalarining bo‘yniga qo‘yib o‘rganib qoldik. Shunday qilmasak bo‘lmas ekan, aks holda restoran egalari to‘y qabul qilmasmish, degan bahona o‘zimizga ham yoqib tushadi ba’zida. Aks holda, bunday hashamatga labbay deb javob bermagan, unga qo‘shilib, yangidan-yangi isrofgarchiliklarni o‘ylab topmagan bo‘lardik.

Onalarimiz nonni ko‘ziga surtib chetga olib qo‘yardi, nahotki biz uni chiqitga tashlaydigan avlodga aylandik. Biz qadriyatlarimiz zanjirini shunday uzatamizmi? Ehtimol, yillar o‘tib, vaziyat o‘zgarar, keyingi avlod bunday isrofgarchiliklarga qarshi bosh ko‘tarib, to‘ylarni ham qisqartirgan holda, turli ortiqcha yemaklarsiz o‘tkazadigan vaqtlar kelar balki. Shunda bizning onalarimiz to‘ylarda stolni sindirguday bezab, nonni chiqitga tashlaydigan ahvolga kelgandi, deya biz haqda gapiradigan avlodlarimiz bilan qolmoqchimizmi tarixda?!

**Gulruh MO‘MINOVA.**

*Ушбу QR код орқали Ўзбекистон халқ ҳофизи Ориф Алимахсумов ижро этган "Сўлим" қўшиғини тинглашингиз мумкин.*



Luqma

# Topganimiz to‘yga buyurishi shart emas

**To‘y - ikki yoshning yangi hayotga qo‘ygan qadami, oila poydevorining boshlanishi. Ammo bugun “Odamlar nima deydi?”, “Falonchidan kam bo‘lib qolmaylik”, “Hamma ustimizdan kuladi” deb asl maqsaddan chekinib, ortiqcha xarajat va dabdabaga mukkamizdan ketyapmiz.**

Kimdir to‘y uchun bor-budini sarflaydi, boshqa birov qarzga botadi. Bundan kimga naf? Nega yoshlarning orzu-havasi bilan qiziqishmaydi? To‘yda shunchalik ko‘p xarajat qilamizki, bu pulga o‘sha ikki yoshga uy-joy, ta’lim, kasb-hunar, kichikroq biznes ochish imkoniyatini yaratish mumkin.

Nega yoshlarning kelajagi uchun foydali narsalar qilish o‘rniga bir kunlik dabdaba ortidan yillab qora terga botishni tanlaymiz? Ayniqsa, chekka hududlarda hali voyaga yetmagan, bilim olmagan, mustaqil fikri shakllanmagan qizlarni erta unashtirish holatlari uchramoqda. Qiz bola kelin bo‘lishdan oldin o‘z yo‘lini topib, hayotning ma’nosini anglashi kerak emasmi?

To‘y - pul, dabdaba yoki qimmatbaho narsalar bilan emas, maqsad va orzu-havas bilan chiroyli bo‘ladi. Ota-onalar, ayniqsa, yoshi kattalar boshqalarning fikriga qarab emas, o‘z farzandining kelajagini o‘ylab harakat qilishi kerak. Isrofgarchilikni to‘xtatish gap bilan emas, unga amal qilish bilan bo‘ladi. Biz, yoshlarga katta to‘y emas, katta imkoniyat kerak!

Topganimiz to‘yga buyurishi shart emas, balki ikki soatlik dabdabaga sarflanayotgan mablag‘ni farzandingizning kelajagiga yo‘naltirish, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega bo‘lishi, chet tillarni o‘rganishi, oilaviy sharoitini yaxshilashga sarflash mumkin.

**Marjona KUNUZOQOVA,**
**SamDChTI talabasi.**

# Bitiruvchilarga 70 ta davlatda tan olinadigan diplom beriladi

**Bugun viloyatda 69 ta professional ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular xalqaro tasniflagich 3, 4 va 5-darajalari bilan uyg‘unlashgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari asosida bo‘lib, 37 ta kasb-hunar maktabi, 12 ta kollej va 20 ta texnikumdan iborat.**

Ushbu professional ta’lim muassasalarida 135 ta kasb bo‘yicha 47569 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. Shuningdek, viloyatdagi 54 ta kasbiy ta’lim muassasalarida 37 ta kasb, mutaxassislik bo‘yicha 3241 nafar o‘quvchi dual ta’lim shaklida saboq olmoqda. Dual ta’limda 698 ta korxona, tashkilotlar bilan shartnoma imzolanib, 799 nafar mutaxassis ustoz sifatida o‘quvchilarga biriktirildi.

Bundan tashqari, joriy yilning yanvar-aprel oylarida kasbiy ta’lim muassasalarida 8 ta kasb bo‘yicha 415 nafar ishsiz fuqaro qisqa muddatli kasbga o‘qitildi. Shuningdek, Qurilish sohasi malakali mutaxassislarni tayyorlash markazida 156 nafar fuqaro 7 ta kasb bo‘yicha o‘qitilmoqda.

Dual ta’limni takomillashtirish borasida ham samarali ishlar olib borilmoqda. Masalan, Samarqand shahar 2- va 3-politexnikumlarda “Ausbildung” dasturi asosida Germaniya bilan dual ta’lim bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Bunda logistika-ombor, yuk mashinasi haydovchisi, elektromontyor, savdo shoxobchasi xodimi kabi kasblarda xohlovchi o‘quvchilar saralab olinib, o‘quv yilining birinchi bosqichini ta’lim muassasasida o‘qib, qolgan ikkinchi va uchinchi bosqichini Germaniyaning ta’lim muassasalarida davom ettirish imkoniyati yaratiladi.



Viloyatda o‘quvchilarni kasbga tayyorlash borasida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining natijasi turli tanlovda baholanyapti. 2025-yilning yanvar oyida “Worldskills Samarkand-2025” V milliy kasblar chempionati viloyatimizda o‘tkazildi. Musobaqada respublikamizning barcha viloyatlaridan 205 nafar ishtirokchi hamshira, santexnik, payvandchi hamda elektromontaj ustasi kasblari bo‘yicha o‘zaro kuch sinashdi. Tanlovda viloyatimiz o‘quvchilari barcha kasblardan birinchilikni qo‘lga kiritdi.

Musobaqada 1-, 2- va 3-o‘rinlarni olgan ishtirokchilarga 2025 yilning 23-27-noyabr kunlari Tayvanda tashkil etiladigan xalqaro kasblar chempionatiga yo‘llanma berildi.

Bugun o‘quvchilarimiz xorijiy davlatlarda ham tanlovlarda qatnashib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelyapti. Masalan, 2-3-aprel kunlari Rossiyaning Novosibirsk shahrida o‘tkazilgan “Elektriklar chempionati – 2025” tanlovida ishtirok etgan Bulung‘ur tumani 1-politexnikumi o‘quvchisi Saidumar Norqo‘ziyev 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

2025-2026-o‘quv yilidan boshlab Samarqand shahar 1-politexnikumida tajriba tariqasida 3 ta kvalifikatsiya bo‘yicha “Pearson Education Limited” kompaniyasining “BTEC” dasturi joriy qilinadi.

“BTEC” dasturi joriy qilingan muassasalarga to‘liq akademik mustaqillik berilib, bitiruvchilarga 70 ta davlatda tan olinadigan diplom beriladi va 200 dan ortiq xorijiy universitetlarga kirish imkoni yaratiladi.

O‘qitish jarayoniga ish beruvchilar keng jalb qilinib, ta’lim dasturlari tarmoq kengashlari va ish beruvchilar bilan kelishilganidan so‘ng amaliyotga kiritiladi.

Bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi ish beruvchilar vakillari ishtirokida amaliy imtihon shaklida o‘tkaziladi.

**G‘ayrat NORQULOV,**
**oliy ta’lim fan va innovatsiyalar boshqarmasining ta’lim jarayonini tashkil etish shu’basi boshlig‘i.**

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
*Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 538 nusxada chop etildi. Buyurtma 242. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*
***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: **G‘.HASANOV.**
Navbatchi: **T.SIDDIQOV.**
Sahifalovchi: **B.ABDULLAYEV.**

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda